



## TA'LIMDA DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*Abdullayeva R.A.*

*Urganch davlat instituti o'qituvchisi*

*Saitnazarova U.N.*

*Urganch davlat instituti magistri*

**Tayanch so'zlar:** didaktik o'yin, ishbilarmonlik o'yini, formulalar darsi, integral dars, intellektual o'yinlar.

**Ключевые слова:** дидактическая игра, деловая игра, урок-формула, интегральный урок, интеллектуальные игры.

**Key words:** didactic game, business game, formula lesson, integral lesson, intellectual games.

Kirish. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Yurtimizda 27.07.2017 yilda qabul qilingan PQ 3151 "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "O'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llabquvvatlash va rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari ko'rish" kerakligi keltirib o'tilgan. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta'lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o'zgarib turadi. Ta'lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o'zining boshlang'ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya'ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo'lgan talabini qondirgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda ta'limni tashkil etishda didaktik o'yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. Didaktik o'yinlar



texnologiyalari o'quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan bo'lib, o'quvchi-talaba shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishning

amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. "Ba'zi o'quvchi-talabalar ma'ruzalarda foydalaniladigan an'anaviy ta'lim usullaridan qoniqib o'qiydi, ba'zilari amaliyotni ma'qul ko'radi, ba'zilari esa ilmiy tadqiqod ishlarni, muammoli vaziyatlarni, o'yinli ta'lim usullarni xush ko'radi. O'quvchi-talabalarga bilim berishda dars jarayonini turli xil usullar orqali tashkil qilish o'ta muxim. Aynan muayyan davr mobaynida shakllangan ta'lim texnologiyalari uzoq tarixiy davr va bosqichlarni bosib o'tdi, bunda o'zining ilmiy fikr va g'oyalari bilan ta'limni rivojiga o'z hissasini qo'shib kelgan ko'pgina didakt olimlarni aytib o'tish joizdir: I.V. Balandin; A.G. Bermus; G.M. Grinberg, E.G. Doroshenko, I.O. Zagashev, S.I. Zair-Bek, A.M. Kamenskiy; I.K. Kondaurova; N.I. Pak, M.A. Sokolskaya; Dj.L. Stil; D. Xalpern, M.G. Yanov, M.V. Grigoryev, E.E. Morozov, S.V. Sergeev, V.A. Yasvin, M.A. Goncharov, V.A. Denisenko, L. Nosov, N.V. Shevchenko, K. Petersen va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Didaktik o'yinlar o'quvchi-talabalarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi. O'qituvchi darsda o'yinli usullar hamda vositalar bilan olib borsa auditoriyada o'tirgan o'quvchilarning yodidan uzoq vaqtga qoladi, hamda qaysi paytda so'ralsa ham o'sha javob berishga harakat qiladi.

Tahlil va natijalar. O'quvchi birinchi navbatda nima esda qoladi albattda ko'rgan va eshitgan hayotiy voqealikka ishonadi va shunga qiziqadi bu o'z navbatida fanga ham shunday qiziqishlari va o'zlashtirishlari namoyon bo'ladi. O'qituvchi bu didaktik o'yinlarni foydalanar ekan demak uning oddiydan

murakkab prisiplariga amal qilishlari lozim, albatta. Buning uchun o'yin tarzida modellashtirish texnologiyasiga asoslanish kerak.

- ▶ Ishchanlik o'yini darsi-dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchi-talabalarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mumkin.
- ▶ Formulalar darsi-o'quvchi-talabalarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi manlar o'tkazish darsi.
- ▶ O'yin darsi-dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchi-talabalarning o'zlashtirishlarini tashkil qilish darsi.
- ▶ Integral (integratsiyalashgan) dars-bir nechta fanlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchi-talabalarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi.
- ▶ "Mo'jizalar maydoni" darsi-o'quvchi-talabalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida turli javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchi-talabalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. Bunday darslar o'quvchi-talabalarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to'liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh-jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;



2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;


3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;

4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;

5. Mashg'ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Didaktik o'yinli texnologiyalarning ta'lim jarayondagi tadbig'i: Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi-talaba shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Bunda ta'limning turli interfaol metodlaridan ham qo'llash juda yaxshi samara beradi masalan, geografiya darslarida O'zbekistondagi neft konlarini klasterda izohlang degan topshiriq berilsa o'quvchi quyidagi klasterni tayyorlab unga zarur ma'lumotlarni kiritishi lozim:

Quyidagi klasterga O'zbekistondagi eng yirik neft konlarini nomi va joylashgan hududini aks ettiring.



Bundan kutilayotgan natija esa, avvalo o'quvchilarda zarur bilim ko'nikma tez va oson shakllanadi, qolaversa dars jarayonida qolgan o'quvchi-talabalarda turli bahs-munozara va kreativ g'oyalar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;

- o‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya‘ni, kommunikativ muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulqatvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma‘naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e‘tibor qaratiladi;
- o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Xulosa va takliflar. Didaktik o‘yinlarni amalda qo‘llash shart-sharoitlari sifatida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish lozimligini aytib o‘tish joiz:

1. Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi.

2. Har bir didaktik o‘yin mashg‘ulotlariga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e‘tiborida bo‘lishi lozim.

3. Har bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini turli belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi.

Didaktik o‘yinlar vositalari, ularni tayyorlash va mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish omillari har bir didaktik o‘yin jarayonida o‘ziga xos vositalar turlari qo‘llaniladi va mashg‘ulot jarayonida ulardan turli, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Didaktik o‘yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta‘minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko‘zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan foydalanish dars mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida didaktik o‘yinlar, ta‘limning turli interfaol texnologiyalaridan foydalanish orqali avvalo darsning sifatini oshirishga erisha oladi, qolaversa ta‘lim oluvchilar tomonidan mashg‘ulot davomida berilayotgan bilim va ko‘nikmalarni tez va ososn o‘zlashtirishga erishishlari mumkin. Xulosa qilib



aytadigan bo‘lsak ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun dars jarayoniga didaktik o‘yinlar va ta’limning interfaol metodlarini qo‘llash orqali kelajakda mamlakatimizda har tomonlama raqobatbardosh kadrlarni kamolga yetishiga hissa qo‘sha olish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Akhmadzhonova Y. T., & Akhmadzhonova, U. T. (2021). “Press conference” in the delivering of chemistry. Экономика и социум, (3-1), 20-22.
2. Yaxshiyeva Z. Z., Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). Ta’lim sifatini baholash xorij tajribasi misolida o‘rganilmoqda. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 383-385.
3. Qulboyev Z., Urinov, S., & Abduraxmonov, A. (2021). Texnika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida qattiq jismlar fizikasi bo‘limini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. Science and Education, 2(10), 380-386.
4. Сиддикова, Ш. А., & Яхшиева, З. З. (2021). Научный подход оценивания знаний на основе вопросов PISA. Журнал естественных наук, 1(4).
5. Yaxshiyeva Z.(2020). Talabalarining mustaqil ta’lim olishida interfaol metodlarning roli. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Qulboyev Z.(2021).Olamni o‘rganishda va texnikaning rivojlanishida mexanikaning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(9),366- 369.
7. Тайланов, Н. А., Ахмаджанова, У.Т.,& Ахмаджанова, Ё.Т.(2016). Новый материал–графен: свойства и возможные применения.Ученый XXI века,.
8. O‘zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2023, [1/7/1] ISSN 2181-7324. FALSFAFA <http://journals.nuu.uz> Social sciences. Sh.Uralova, N.Tashpulatova,Didaktik o‘yin texnologiyalaridan dars mashg‘ulotlarida foydalanish.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada didaktik o‘yinlar va ularning ta’lim jarayonidagi afzalliklari, bunday o‘yinlardan foydalanib tashkil qilingan darslar orqali o‘quvchilarning ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini aniqlashga erishish haqida so‘z yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются дидактические игры и их преимущества в учебном процессе, вопрос о том, как посредством занятий, организованных с использованием таких игр, определить мотивацию учащихся к обучению, их способности и интересы в различных направлениях, их склонность к профессии.

#### SUMMARY

In this article, didactic games and their advantages in the educational process, didactic methods that increase students’ educational motivations, their abilities and interests in various directions, and help to determine their inclination to a profession through lessons organized using such games. talking about games.